

**KOGNITIV VA KOMMUNIKATIV STRATEGIYALARNI
QO'LLASH ORQALI FILOLOGIK TA'LIMDA DIDAKTIK
IMKONIYATLARNI YARATISH**

Pardayeva Umida Norbayevna

Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent shahar, Mirobod tumani,

Temiryo'chilar ko'chasi 1-uy

e-mail: upardayeva33@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada filologik ta'lim jarayonida kognitiv va kommunikativ strategiyalarning integratsiyasi nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, tadqiqotda zamonaviy ta'lim nazariyasi asosida ushbu ikki strategik yo'nalishning birlashtirilishi talabalar kompetentligini qanday yuksaltirishini asoslab berilgan. Bundan tashqari, xalqaro va mahalliy tadqiqotlar misolida integratsiyaning didaktik imkoniyatlari ko'rsatilib, amaliy tatbiq modellari tavsiya etilgan.*

Kalit so'zlar: *kognitiv strategiya, kommunikativ kompetentlik, zamonaviy yondashuv, didaktik integratsiya, o'quv samaradorligi.*

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy metodikadan foydalanish va tatbiq etish dolzarb jarayon hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimida filologik ta'lim berish jarayonida o'ziga xos metodologik muammolar kuzatilmoqda. Shuni yaqqol ko'rishimiz mumkinki, hozirgi kunda tilni o'rgatishda an'anaviy metodlar ya'ni matn sharhi, grammatik tahlil yoki so'zlarni yod olish yetarli metodlar hisoblanmayapti. Dunyo miqyosida olib borilgan ko'plab pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, faqat lingvistik tuzilmalarni o'rgatishga qaratilgan ta'lim jarayoni talabaning haqiqiy kommunikativ faolligini ta'minlamaydi. Filolog talabalarda matnni tahlil qilish ko'nikmasi yuksak darajada bo'lsa ham, uni nutqiy muloqotda, ilmiy diskursda yoki kasbiy muhitda samarali qo'llay olmasligi holatlari tez-tez kuzatilmoqda. Shu sababdan, muammoning dolzarbligi faqat didaktik nuqtai

nazardan emas, balki kadrlar tayyorlash sifati va mehnat bozori talablari jihatidan ham ahamiyat kasb etadi.

Shu tariqa biz muammoning asl mohiyati kognitiv va kommunikativ strategiyalar o'rtasida integratsiyaning yo'qligida deb bilamiz.

Kognitiv strategiyalar o'quvchining axborotni qayta ishlash, tizimlashtirish, tahlil qilish va xotiraga saqlash jarayonlarini o'z ichiga olsa, kommunikativ strategiyalar ushbu bilimni muloqot, diskurs va ijtimoiy o'zaro ta'sir orqali amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan. Ikkala strategiya alohida olinsa to'liq samaradorlikka erishib bo'lmaydi. Bu ikki yo'nalishning didaktik jarayondagi integratsiyasi esa zamonaviy ta'lim nazariyasining ustuvor vazifalaridan biriga aylanib bormoqda.

Ushbu ikki strategiyalarni asoslash uchun biz nazariy jihatdan tahlil qilishimiz zarur hisoblanadi.

Kognitiv strategiyalar til ta'limida mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshladi. Bu boradagi dastlabki tizimli ishlardan biri sifatida J.Omali va A.Chamotning tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Ular kognitiv strategiyalarni til materialini bevosita qayta ishlashga qaratilgan amallar majmuasi sifatida ta'riflab, uning tarkibiga xulosa chiqarish, qayta tashkil etish, abstrakt fikrlash va qiyoslash kabi jarayonlarni kiritganlar. Rebeka Oksford esa o'zining keng qo'llanadigan tasniflashida kognitiv strategiyalarni to'g'ri strategiyalar tarkibida ko'rsatib, ularni xotira va kompensatsiya strategiyalaridan farqlagan. R.Oksford tasniflashiga ko'ra, kognitiv strategiyalar quyidagi to'rt guruhga bo'linadi: (a) amaliyot: takrorlash, rasmiy mashq, tabiiy muhitda qo'llash; (b) xabar qabul qilish va yuborish: g'oyani tezda anglash, resurslardan foydalanish; (d) tahlil va mulohaza yuritish: deduktsiya, kontrastiv tahlil, tarjima; (e) kiritish va chiqarish uchun tuzilma yaratish: konspekt olish, xulosa chiqarish, asosiy fikrlarni ajratish. Mazkur strategiyalar filologik ta'limda ayniqsa muhimdir, chunki adabiy matnlar bilan ishlash, lingvistik tahlil o'tkazish va ilmiy fikr yuritish aynan mana shu kognitiv jarayonlarga tayanadi.

Shu asnoda talabalarda kuzatilayotgan kommunikativ muammolarni

etiborga olish muhim. Masalan, talaba matnni mustaqil o'qib, asosiy g'oyalarni aniqlasa ham, uni ilmiy bahsda himoya qilish, muqobil talqinlarni taqqoslash va nutqiy jihatdan ifodalash uchun o'qituvchi yo'naltiruvchi savollar va muloqot tuzilmalari orqali yaqin rivojlanish zonasida ishlaydi.

Kognitiv va kommunikativ strategiyalar amaliyotda til o'rgatishda alohida va o'ziga xos metodlarni o'zida namoyon etadi. Quyida filologik ta'limda qo'llaniladigan metodlar jamlanmasi tavsiflanadi.

Debat va munozara metodi. Filologik mavzularda, masalan, "Ushbu asardagi bosh qahramon fojiasi muallif niyatidan kelib chiqadimi yoki ijtimoiy muhit mahsulidami?" kabi muammoli savol atrofida debat tashkil qilish talabani avvalo matnni kognitiv jihatdan chuqur tahlil qilishga (argument topish, dalil keltirish), so'ng esa bu argumentlarni nutqiy jihatdan samarali ifodalashga majbur qiladi.

Klaster va konsept-xarita metodi. Talaba adabiy asar yoki lingvistik hodisani tahlil qilishdan oldin kontsept-xarita tuzadi. Bu kognitiv operatsiya sifatida tizimli fikrlashni ta'minlaydi. Keyingi bosqichda talaba o'z xaritasini tengdoshiga tushuntiradi, bu esa kommunikativ faoliyatni uyg'otadi. Ikkala bosqich birgalikda o'quv natijasini yanada mustahkam qiladi.

Muammoli ta'lim metodi. Talabalar real lingvistik yoki adabiy muammolar, masalan, "Ushbu adabiy asarning tiliy xususiyatlari asosida muallif kimligini aniqla" kabi topshiriqlar ustida ishlaydi. Bu metod ham analitik tafakkurni, ham jamoaviy kommunikatsiyani bir vaqtda talabalashtiradi.

Ushbu maqolada filologik ta'lim samaradorligini oshirishda kognitiv va kommunikativ strategiyalar integratsiyasining didaktik imkoniyatlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarga keldi. Birinchidan, kognitiv va kommunikativ strategiyalar bir-birini to'ldiruvchi va bir-birini kuchaytiruvchi tizimni tashkil etib, ularni alohida o'rgatish filologik ta'limning to'liq potensialini ro'yobga chiqarmaydi. Filolog mutaxassisi uchun bilimni egallash (kognitiv jarayon) va uni professional diskursda qo'llash (kommunikativ jarayon) bir-biridan ajralmas faoliyat turlaridir. Ikkinchidan,

integratsiya uchun mustahkam nazariy asos mavjudligi ushbu integratsiyaning zarurligini va mumkinligini asoslab beradi. Uchinchidan, integratsiya amaliyotda konsept-xarita, debat, muammoli ta'lim va matn rekonstruktsiyasi kabi aniq metodlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Oxford R.L. Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know. New York: Newbury House Publishers, 1990. 342 b.
2. O'Malley J.M., Chamot A.U. Learning Strategies in Second Language Acquisition. Cambridge: Cambridge University Press, 1990. 260 b.
3. González-Velázquez L. Cognitive and Affective Processes in Second Language Oral Communication: A Mixed Methods Research // Frontiers in Education. 2025. Vol. 10.
4. Shabani K. Vygotsky's Zone of Proximal Development: Instructional Implications and Teachers' Professional Development // English Language Teaching. 2010. Vol. 3. No. 4. B. 237–248.
5. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. 159 b.